

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILI
DARSLARINI OLIB BORISHNING SAMARALI USULLARI**

Normatova Feruza Shavkatovna

*Surxondaryo viloyati Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi,
Termiz shahar 31-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi*

Xudoyberdiyeva Sadoqat Yo'ldoshivna

*Surxondaryo viloyati Sherobod tumani 5-o'rta maktab ning ingliz tili fani
o'qituvchisi*

Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani barchamizga ma'lum. Shuning uchun ham zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida erishilgan yutuqlarni ta'lim tizimiga tadbiq etish orqali malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qayd etib o'tilgan. Bugungi zamonaviy ta'lim xar tomonlama yetuk va mukammal shaxs tarbiyasi ustida tinimsiz izlanishlar olib bormoqda. Ushbu harakatlar zamirida pedagoglarni o'z faolyatimizga yanada ma'sulyat bilan qarashga undaydi. Zamonaviy psixologiya fanida "Chet tilini o'rganish inson xarakterini xam qisman o'zgartiradi" degan fikrni ilgari surmoqda. Bolaning individual muloqot yuritish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari, jumladan uning kelajakdagi shahsiy va kasbiy intilishlari diqqat markazida turadi.

Ta'lim jarayonida bolalarga chet tilini o'rgatishda turli xil ko'rgazmali qurollardan, ertak qahramonlarni obrazlariga kirish orqali o'rgatish, ularda chet tillariga bo'lgan qiziqish uyg'otishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatish jarayonida multimedia, videolar, dars davomida interfaol o'yinlardan, ko'rgazmali qurollardan, tarqatma materiallardan foydalanish orqali o'qitiladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda chet tillarini samarali olib borishda bir necha usullarni qo'llash tavsiya etiladi.

1. Chet tillarini o'rgatishda bolalarni yoshi ularni psixofziologik xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Ularni yoshiga va o'zlashtirishiga qarab chet tili materiallari bolalarga taqdim etiladi.

2. Bolalarni tez toliqib (charchash, zerikish, chalg'ish) qolishlarini xisobga olgan holda, darslikdagi materiallardan tashqari bolalar uchun qiziq bo'lgan xar xil xarakatli o'yinlar va ko'rgazmali qurollarni tez tez qo'llab turish dars samaradorligini oshiradi.

3. Dars davomida ko'pincha o'qituvchilar bazi xatolarga yo'l qo'yadilar. Ular doimiy yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchi bilan shug'ullanib, past o'zlashtirayotgan o'quvchilarni nazardan chetda qoldiradilar. Natijada o'quvchida til o'rganishga bo'lgan qiziqish susayadi. Shunday xolatlarni oldini olish o'qituvchidan alohida mehnat, mahorat talab qiladi. Mashg'ulotlar davomida qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilarni aniqlab olib, ularga darsdan so'ng alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda noodatiy interfaol usullardan foydalangan holda sinf o'quvchilarini kichik jamoalarga bo'lish jamoalarda esa kuchlarni to'g'ri taqsimlash ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali o'quvchilarning faolligi oshadi.

4. Boshlang'ich sinflarda chet tili darslarida o'yin usulidan foydalanish samarali bo'lib, bunda o'quvchining kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. Turli xil xarakterli o'yinlar bolaning emotsional xis tuyg'ular va aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishini, biror bir qaror qabul qilishda qanday yo'l tutish, fikr bildirish vazifalarini amalga oshirishni talab etadi. O'yin bola uchun qiziqarli mashg'ulot bo'lib, bunda yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi ham, past o'zlashtiruvchi o'quvchi ham teng ishtirok etadi.

5. Agar ingliz tili birinchi chet tili bo'lsa, navbatdagi chet tillari uchun alohida mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda tillarni o'rganishda zamin yaratishi lozim.

6. Tez-tez qo'shiqlardan foydalanib turish, o'quvchi talaffuz ko'nikmalarini oshiradi, monolog va dialog tarzida fikr bildirishga o'rgatadi. Bundan tashqari qo'shiq til o'rganish jarayoniga bayromona rux, noananaviy yondoshuv olib kiradi. Yuqoridagi barcha o'quv metodlari hozirgi kunimizda xar tomonlama keng islox etilmoqda. Shunga muvofiq o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarini mukamal o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida, darslarni olib borish yo'lga qo'yilmoqda.

7. Boshlang'ich sinflar darsligining tarkibida mustaqil ishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu orqali o'quvchini creative (ijodiy) fikrlashga, o'quvchilarni yangilik yaratishda o'zlarining hoxish istaklari, qiziqishlarining o'rin olishi ham til o'rganuvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va dars samaradorligini oshirib boradi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan mustaqil ishlarga o'qituvchi tomonidan ijobiy fikrlar berilishi, kamchiliklarni do'stona taklif sifatida aytilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa tariqasida shuni aytish kerakki, o'quvchilar chet tili darslarida o'zlarini erkin tutishlari uchun, ular bilan darsni qiziqarli olib borish, bir xillikdan yiroqda bo'lib, mashg'ulotlarga yangicha rux olib kirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim berish bu- jamiyat qurishdir. O'quvchini shahsini shakllantirish har bir pedagogning zimmasiga ulkan ma'sulyat yuklaydi. Yosh avlodni vatanga sadoqatli, mehr-muhabbatli, poydevor qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarning sharafli burchimizdir.